

SURXONDARYO VILOYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLARNING TARIXIY-TAHLILIY SHARHI (2016–2025-YILLAR)

Suyunov Ilyos Juma o‘g‘li

Termiz davlat universiteti nustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/00090001-4523-4678X>

e-mail: suyunovilyos89@gmail.com

UDK: 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2016–2025-yillarda Surxondaryo viloyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan islohotlar tarixiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining huquqiy va institutsional asoslari, davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar hamda ularning hududiy darajadagi natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotning manbaviy bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qonunlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi statistik ma’lumotlari, Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi hujjatlari hamda mahalliy davriy matbuot materiallari tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiyaga qarshi kurashish, Surxondaryo viloyati, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, institutsional islohotlar, komplayens-nazorat.

Аннотация: В данной статье представлен историко-аналитический анализ реформ, осуществлённых в сфере противодействия коррупции в Сурхандарьинской области в 2016–2025 годах. В исследовании проанализированы правовые и институциональные основы государственной антикоррупционной политики, реформы, реализованные в системе государственного управления, а также их результаты на региональном уровне. Источниковую базу исследования составили указы и законы Президента Республики Узбекистан, статистические данные Агентства по противодействию коррупции, документы текущего архива Управления внутренних дел Сурхандарьинской области, а также материалы местной периодической печати.

Ключевые слова: противодействие

коррупции, Сурхандарьинская область, цифровизация, государственное управление, институциональные реформы, комплаенс-контроль.

Abstract: This article presents a historical and analytical study of the anti-corruption reforms implemented in Surkhondaryo Region during 2016–2025. The research examines the legal and institutional foundations of Uzbekistan's anti-corruption policy, the reforms carried out within the public administration system, and their outcomes at the regional level. The source base of the study consists of decrees and laws of the President of the Republic of Uzbekistan, statistical data of the Anti-Corruption Agency, documents from the current archive of the Surkhondaryo Regional Department of Internal Affairs, as well as materials published in local periodicals.

Keywords: anti-corruption, Surkhondaryo Region, digitalization, public administration, institutional reforms, compliance control.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Korrupsiya bugungi kunda davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi, iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi hamda jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillariga putur yetkazuvchi eng dolzarb global muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur illat davlat institutlariga bo‘lgan ishonchning susayishiga, investitsiya muhitining yomonlashishiga, byudjet mablag‘larining samarasiz sarflanishiga hamda fuqarolarning qonun ustuvorligiga bo‘lgan ishonchi pasayishiga olib keladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki va boshqa xalqaro institutlarning

ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu jarayonlarda faol ishtirok etib, BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi hamda Istanbul Harakat rejasi doirasidagi majburiyatlarni qabul qilishi orqali milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni boshladi [1].

O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati ayniqsa 2016-yildan boshlab yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda korruptsiyaviy omillarni kamaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari tashkil etdi. Ushbu hujjatlar asosida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, davlat organlari va tashkilotlarida komplayens-nazorat tizimi joriy qilindi hamda korruptsiyaviy xavflarni aniqlash va ularning oldini olishning zamonaviy mexanizmlari shakllantirildi [1].

Respublikada amalga oshirilgan institutsional islohotlar xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topdi. Xususan, «Transparency International» xalqaro nodavlat tashkilotining Korruptsiyani qabul qilish indeksida O'zbekistonning ko'rsatkichlari bosqichmabosqich yaxshilanib, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni sezilarli darajada yuqoriladi. Bu esa korruptsiyaga qarshi kurashish tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muayyan natija berayotganidan dalolat beradi [1].

Shu bilan birga, korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini faqat respublika miqyosidagi umumiy ko'rsatkichlar asosida baholash yetarli emas. Hududlar kesimida olib borilgan amaliy ishlarni tarixiy jihatdan o'rganish, korruptsiyaviy jinoyatlarning tarkibi va dinamikasini tahlil qilish, ularning kelib chiqish omillarini aniqlash hamda amalga oshirilgan islohotlarning hududiy natijadorligini baholash muhim ilmiy va amaliy

ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, agrar-iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan Surxondaryo viloyatida yer munosabatlari, davlat xizmatlari, ijtimoiy soha hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq korruptsiyaviy xavflarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatini takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR (МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga asoslandi. Muammoni o'rganishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, statistik tahlil, kontent tahlili hamda qiyosiy-huquqiy metodlardan kompleks foydalanildi. Mazkur metodlar korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining shakllanish bosqichlari, normativ-huquqiy asoslarining rivojlanishi hamda Surxondaryo viloyatidagi amaliy natijalarni tarixiy ketma-ketlikda tahlil qilish imkonini berdi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida 2016–2025-yillarda respublika va Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan korruptsiyaga qarshi islohotlarning asosiy bosqichlari o'zaro solishtirildi. Tarixiy-tipologik yondashuv orqali korruptsiyaviy jinoyatlar turlari, ularning hududiy xususiyatlari hamda sohaviy tarkibi tizimlashtirildi. Statistik tahlil metodi asosida jinoyatlar soni, ularning tarkibi, mansabdor shaxslar ulushi va davlat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar hamda uning qoplanish darajasi bo'yicha rasmiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Kontent tahlili yordamida esa mahalliy davriy matbuotda e'lon qilingan sud materiallari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy axborotlari o'rganildi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini birlamchi va ikkilamchi manbalar tashkil etdi. Birlamchi manbalar sifatida Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivining 2020–2024-yillarga oid bayonnomalari, xizmat yig'ilishlari materiallari hamda tahliliy ma'lumotlaridan foydalanildi [3–8]. Ushbu hujjatlar hududdagi kriminogen vaziyat, korruptsiyaviy jinoyatlarning tarkibi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yoritishda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qildi.

Ikkilamchi manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining statistik ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar hamda "Qumqo'rg'on sadosi" va "Sherobod hayoti" gazetalarida e'lon qilingan rasmiy sud va tergov materiallaridan foydalanildi [1; 2; 9–12]. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro qiyoslandi va verifikatsiya qilindi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning xronologik chegarasi 2016–2025-yillarni qamrab oladi. Ushbu davr O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining institutsional jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, komplayens-nazorat tizimining joriy etilishi hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Hududiy doira sifatida Surxondaryo viloyati tanlandi, chunki mazkur hududda korrupsiyaga oid jinoyatlarning sohaviy tarkibi va ularning hududiy xususiyatlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish imkoniyati mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). 2016–2025-yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi institutsional, huquqiy va tashkiliy jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur davrda korrupsiyaning oldini olish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash hamda fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar Surxondaryo viloyatida ham bosqichma-bosqich joriy etilib, hududda korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish va davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishga xizmat qildi [1].

Korrupsiyaning oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida davlat xizmatlarini raqamlashtirish va inson omilini qisqartirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlat xizmatlari markazlari faoliyatining kengaytirilishi natijasida 2017-yilda 37 turdagi xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2018-yilda ularning soni

106 taga, 2019-yilda 133 taga, 2020-yildan boshlab esa 148 taga yetkazildi [1]. Mazkur o'zgarishlar davlat xizmatlarini ko'rsatishda ortiqcha byurokratik tartib-taomillarni qisqartirib, fuqaro va mansabdor shaxs o'rtasidagi bevosita aloqalarni kamaytirish orqali maishiy korrupsiyaning oldini olishga xizmat qildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining preventiv mexanizmlaridan biri sifatida davlat organlari va davlat ulushi mavjud korxonalarda komplayens-nazorat tizimi joriy etildi. Ushbu tizim korrupsiyaviy xavflarni baholash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro ISO 37001 standartlari asosida faoliyatni tashkil etishga yo'naltirildi. Natijada 26 ta vazirlik va idorada korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlari shakllantirildi hamda ularning faoliyati doimiy monitoring qilina boshlandi [1; 2].

Arxiv hujjatlarining tahlili Surxondaryo viloyatida 2020–2021-yillarda qayd etilgan jinoyatlar sonida sezilarli o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Viloyatda 2020-yilda 3176 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 5041 taga yetgan. Shu davrda og'ir jinoyatlar 615 tadan 1130 taga, og'ir bo'lmagan jinoyatlar esa 868 tadan 1295 taga ko'paygan [3–7]. Mazkur holatni faqat jinoyatchilikning ortishi bilan izohlash to'liq to'g'ri bo'lmaydi. Chunki ushbu davrda korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining faoliyati kuchaytirilib, yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash samaradorligi oshganligi natijasida ilgari yashirin qolgan huquqbuzarliklar rasmiy statistikada o'z aksini topa boshlagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning birinchi yarmida respublika bo'yicha korrupsiyaga oid 1676 ta jinoyat ishi tergov qilinib, 2544 nafar mansabdor shaxs javobgarlikka tortilgan. Mazkur jinoyatlar oqibatida davlat manfaatlariga 592,5 milliard so'm miqdorida zarar yetkazilgan bo'lib, uning 170,8 milliard so'mi undirilgan [1]. Ushbu ko'rsatkichlar korrupsiyaning iqtisodiy xavfi yuqoriligini ko'rsatish bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada

takomillashtirish zarurligini ham tasdiqlaydi.

Surxondaryo viloyatida aniqlangan korrupsiyaviy jinoyatlarning tahlili ularning turli sohalarda uchrayotganini ko'rsatadi. Xususan, Sho'rchi tibbiyot kolleji rahbarining o'qishga qabul qilish evaziga, Qumqo'rg'on tuman markaziy poliklinikasi shifokorining esa nogironlik nafaqasini rasmiylashtirish bilan bog'liq poraxo'rlik holatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan fosh etilgan [9]. Ushbu holatlar ijtimoiy sohada korrupsiyaviy xavflar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Mahalliy davriy matbuot materiallari fuqarolarni aldagan vositachilar faoliyatining ham uchrab turganini tasdiqlaydi. Jumladan, Sherobod tumanida subsidiya olish maqsadida soxta bandlik hujjatlarini tayyorlash bilan bog'liq firibgarlik holati aniqlangan [12]. Shuningdek, o'zini huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida tanishtirib, fuqarolarni ishga joylashtirishni va'da qilgan shaxs tomonidan katta miqdordagi mablag'lar firibgarlik yo'li bilan o'zlashtirilgani ham sud materiallarida qayd etilgan [11]. Mazkur holatlar aholining huquqiy savodxonligini oshirish va davlat xizmatlarining rasmiy tartiblarini keng targ'ib qilish zarurligini ko'rsatadi.

2023-yilda Surxondaryo viloyatida iqtisodiy va korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichlari yanada oshgan. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 127 ta noqonuniy holat aniqlangan bo'lsa, 2023-yilda ularning soni 212 taga yetgan [8]. Aniqlangan jinoyatlar tarkibida yer maydonlarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq holatlar 109 tani yoki jami jinoyatlarning 51,4 foizini tashkil etgan. Firibgarlik 75 ta, tovlamachilik 14 ta, poraxo'rlik 6 ta, valyuta qoidalarini buzish 6 ta, o'zlashtirish yo'li bilan talon-toraj qilish 4 ta va qalbaki pul tayyorlash 1 ta holatda qayd etilgan

[8].

Yer bilan bog'liq jinoyatlarning yuqori ulushi Surxondaryo viloyatining agrar hudud ekanligi bilan bevosita bog'liq. Yer resurslariga bo'lgan talabning ortishi, ayrim hollarda yer ajratish va rasmiylashtirish jarayonlarida qonun buzilishlariga yo'l qo'yilishi mazkur sohada korrupsiyaviy xavflarning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu esa yer munosabatlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kadastr ma'lumotlarining ochiqqligini ta'minlash hamda elektron auksion tizimlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2023-yilda viloyat bo'yicha jami 225 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, ulardan 23 nafari turli darajadagi mansabdor shaxslarni tashkil etgan. Bundan tashqari, 11 ta jinoiy guruh faoliyatiga chek qo'yilgan. Davlat manfaatlariga yetkazilgan 5 milliard 969 million so'm zarar aniqlanib, uning 4 milliard 913 million so'mi yoki 82,3 foizi undirilgan [8]. Ushbu ko'rsatkich respublika miqyosidagi 2021-yilgi zararlarni undirish darajasiga nisbatan ancha yuqori bo'lib, viloyatda iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish va moddiy zararni qoplash mexanizmlarining samaradorligi ortganligini ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2016–2025-yillar O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tgan davri bo'ldi. Mazkur davrda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirildi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi, davlat organlari va tashkilotlarida kompayens-nazorat tizimi joriy qilindi hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-sonli Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Rahmonov F. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari // Adliya va jamiyat. – B. 1.

3. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2020-yil, 12-sonli bayonnoma, 45-varaq.
4. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2020-yil, 8-sonli bayonnoma, 8-varaq.
5. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2021-yil, 2-sonli bayonnoma, 18-varaq.
6. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2021-yil, 11-sonli bayonnoma, 13-varaq.
7. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2021-yil, 11-sonli bayonnoma, 17-varaq.
8. Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi joriy arxivi, 1-jild, 2024-yil, 2-sonli bayonnoma, 57-58-betlar.
9. Kasb talablarini suiiste'mol qilish oqibatlari // Qumqo'rg'on sadosi. – 2021-yil 29-janvar. – № 3 (3226). – B. 2-3.
10. Qilmishiga yarasha // Qumqo'rg'on sadosi. – 2021-yil 13-sentabr. – № 25-26 (3248-3249). – B. 4.
11. Hayot yo'lidan ko'p bora adashgan odam // Sherobod hayoti. – 2023-yil 15-fevral. – № 2. – B. 2.
12. Firbgarligi foyda bermadi // Sherobod hayoti. – 2023-yil 28-fevral. – № 3. – B. 2.